



ASSOTSIIATIV PORTRET: LINGVISTIK TABIATI, NAZARIY ASOSLARI VA YARATISH USULI

Murodova Xafiza Muhammadjonovna

Qo'qon davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada assotsiativ portret assotsiativ portret tushunchasining talqini tushunchasining talqini va lingvistik tavsifi ochib berilgan. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklari imkoniyatlari assotsiativ tilshunoslikda kishi ongigidagi in'ikosi sifatida qaralishi, portret va uning milliy-madaniy xususiyatlari dolzarbligi xususidagi qarashlar mavjud. Antroposentrik qarashlarda tabiat, inson, hayvonot va undagi jamiki narsalar nafaqat individual, balki umumiy xususiyatlar ham mavjudligini isbotladi. Bu antroposentrik nazariyaga ko'ra inson atrofga aqliy, hissiy munosabatda bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: antroposentrik, zamonaviy tilshunoslik, hissiy, aqliy munosabat, portret, milliy-madaniy xususiyatlar.

АССОЦИАТИВНЫЙ ПОРТРЕТ: ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА, ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕТОД СОЗДАНИЯ

Муродова Хафиза Мухаммаджоновна

Аспирантка 2-го года обучения Кокандского государственного
университета



Аннотация. В данной статье рассматривается интерпретация и лингвистическое описание понятия ассоциативного портрета. В современной лингвистике существуют взгляды на возможность рассматривать языковые единицы как отражение сознания человека, а также на значимость портрета и его национально-культурных характеристик. Антропоцентрические взгляды доказали, что природа, люди, животные и всё в ней обладают не только индивидуальными, но и общими характеристиками. Это показывает, что, согласно антропоцентрической теории, человек может иметь ментальное и эмоциональное отношение к окружающей среде.

Ключевые слова: антропоцентрический, современная лингвистика, эмоциональный, ментальное отношение, портрет, национально-культурные характеристики.

ASSOCIATIVE PORTRAIT: LINGUISTIC NATURE, THEORETICAL FOUNDATIONS AND CREATION METHOD

Murodova Khafiza Muhammadjonovna

2nd year doctoral student at Kokand State University

Annotation. This article explains the interpretation and linguistic description of the concept of associative portrait. In modern linguistics, there are views on the possibility of language units being considered as a reflection of a person's mind, and on the relevance of the portrait and its national-cultural characteristics. Anthropocentric views have proven that nature, humans, animals and everything in it have not only individual, but also general characteristics. This shows that, according to the anthropocentric theory, a person can have a mental and emotional attitude towards the environment.

Keywords: anthropocentric, modern linguistics, emotional, mental attitude, portrait, national-cultural characteristics.

Zamonaviy tilshunoslikda insonning borliqni tilda aks ettirishida shaxsiga xos fiziologik, ruhiy, ijtimoiy, madaniy, diniy xususiyatlarning o'rni, borliq haqidagi bilim va tasavvurlari, unga bo'lgan munosabatining roli, til birliklari zaxirasi, tilning imkoniyatlaridan foydalana olish qobiliyatini o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu muammolar qatorida biror bir obyektning inson assotsiatsiyalariga asoslangan assotsiativ portreti va uning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etish ham dolzarb masala sanaladi.

O'tgan asrning so'nggi yillarida dunyo tilshunosligiga antropotsentrik tadqiq yo'nalishi kirib kelgach, tilni undan foydalanuvchi inson va uning shaxsiga xos xususiyatlar hamda tilga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi ijtimoiy, madaniy, ruhiy omillar bilan aloqadorlikda o'rganishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlarda, ayniqsa, insonning tashqi olam haqidagi bilim va tasavvurlarining tilda assotsiatsiyalar orqali voqelanishi muammosini o'rganish tadqiqotchilar e'tiborini tortdi.

Inson tashqi olamni idrok etar ekan, uning ongida ushbu olamning hissiy obraz-qiyofasi shakllanadi. Mazkur obrazning ongda konsept darajasiga ko'tarilishida insonning tashqi olam haqidagi bilim va tassavvurlari asosida tiklanadigan assotsiatsiyalari ham muhim o'rin tutadi. Inson borliqni til prizmasi orqali tasavvur qilar ekan, uni tilda aks ettirishda assotsiatsiyalariga yondashadi. Borliqdagi predmetlar, inson, tabiat, hayvonot olami, voqea-hodisalarning konseptual mohiyatini to'la anglab yetishda inson assotsiatsiyalarining ahamiyati katta.

Ma'lumki, assotsiatsiya narsa-predmetlar, voqea-hodisalar, g'oyalar, tushunchalar, ruhiy kechinmalarning inson ongida bir-birini yodga solib turishini



anglatuvchi mental-ruhiy hodisadir. Tildagi assotsiativ aloqa-bog'lanishlar esa til birliklarining bir-birini xotirada tiklashi mexanizmini aks ettiradi.

Inson assotsiatsiyalarida borliqdagi muayyan bir obyekt to'laqonli, atroflicha namoyon bo'ladi. Assotsiatsiyalar nafaqat obyekt haqidagi bilim va tasavvurlarni, balki ushbu obyekt bilan yaqin munosabatda, aloqa-bog'lanishda bo'lgan boshqa obyektlar xususida ham ma'lumot beradi. Boshqacha aytganda, insonda muayyan obyekt bo'yicha yuzaga kelgan assotsiatsiyalar ushbu obyektning boshqa obyektlardan ajratgan holda, yakka holda aks ettirmaydi. Tafakkurning obyektning o'ziga o'xshash, yondosh obyektlar bilan aloqadorlikda tahlil qilish xususiyati insonda bu obyekt bo'yicha turli assotsiatsiyalarning yuzaga kelishiga yo'l ochadi. Assotsiatsiyalarda obyektning nafaqat alohida individ, balki jamiyat a'zolari ongidan o'rin olgan obrazi, muhim qirralari, unga bo'lgan munosabat kabilar namoyon bo'ladi. Assotsiatsiyalar obyektning kishilar tomonidan aqliy, hissiy va tajribalar asosida aniqlangan muhim xususiyatlarini, u haqidagi qarashlar, ma'lumotlar, yakka shaxs va jamiyatda shakllangan tasavvurlarni namoyish qiladi. Shu jihatdan borliq tasviri va tavsifida inson assotsiatsiyalarining roli muhim o'rin tutadi.

Dunyo tilshunosligida so'nggi yillarda tilni inson ongi va tafakkuri, tashqi olam haqidagi bilimlari, tasavvurlari, dunyoqarashi, ruhiyati, madaniyati, shaxsiga xos ijtimoiy xususiyatlar bilan uzviy bog'liq holda tadqiq qilish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu yo'nalishda insonda biror bir obyekt bo'yicha hosil bo'ladigan assotsiatsiyalarning tilda voqelanishi qonuniyatlarini ochib berish, tilda assotsiatsiyalarning shakllanishiga turtki beruvchi omillarni aniqlash muhim bo'lib, mazkur muammo bo'yicha o'zbek tilshunosligida ham oxirgi yillarda muayyan ilmiy izlanishlar olib borildi. Shunga qaramay, assotsiativ tilshunoslik XXI asr tilshunosligining yangi yo'nalishi bo'lganligi uchun tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalalari ko'p. Sohaning mana shunday dolzarb muammolardan biri



muayyan obyektning inson ongida gavdalangan hissiy obraz-qiyofasining lisoniy assotsiatsiyalarda aks etishi masalasidir.

Keyingi yillarda assotsiativ tilshunoslikda obyektning inson tasavvuridagi hissiy obrazini assotsiatsiyalar vositasida tasvirlovchi assotsiativ portret termini ko'p qo'llanmoqda. Assotsiatsiya terminining fanda qo'llanishi uzoq tarixga borib taqalsa-da (assotsiatsiya haqidagi ilk qarashlar buyuk faylasuflar –Aristotel, Platon asarlarida uchraydi), assotsiativ portret termini adabiyotshunoslik, psixologiya, rassomchilik, haykaltaroshlik sohalarida, asosan, o'tgan asrning birinchi choragidan boshlab qo'llana boshladi. Tilshunoslikda esa bu termin o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab psixolingvistikaga oid ilmiy izlanishlarda uchradi.

Tilshunoslikda qo'llanuvchi assotsiativ portret tushunchasi psixologiya, adabiyotshunoslik, rassomshunoslik, haykaltaroshlik sohalarida qo'llanuvchi assotsiativ portret terminidan farqlanadi. Tilshunoslikda, xususan, assotsiativ tilshunoslikda assotsiativ portret termini muayyan obyekt bo'yicha insonda yuzaga kelgan assotsiatsiyalar asosida hosil bo'lgan lisoniy tasvirga nisbatan qo'llanadi. Demak, assotsiativ tilshunoslikda assotsiativ portret muayyan obyektning til jamoasi tafakkuri prizmasidan o'tgan va milliy ongida hosil bo'lgan hissiy obraz-qiyofasining lisoniy assotsiatsiyalarda voqelangan tasviridir. D.Lutfullayevaning fikricha, “assotsiativ portret termini “obyektning inson assotsiatsiyalari asosida hosil qilingan tashqi qiyofasi”ni anglatadi. Ushbu termin tarkibida qo'llangan assotsiativ so'zi tilshunoslikda “til birliklarining bir-birini yodga tushirishi, xotirada tiklashi”ga nisbatan ishlatiladi. Olima obyektning tildagi assotsiatsiyalar yordamida hosil qilinadigan bunday portretiga nisbatan “assotsiativ lisoniy portret” terminini qo'llashni tavsiya qilgan . Anglashiladiki, assotsiativ portret obyektning tildagi assotsiatsiyalar vositasida hosil qilingan lisoniy tasviridir.

Til egalarida muayyan obyekt bo'yicha yuzaga keladigan lisoniy assotsiatsiyalar asosida hosil qilinadigan assotsiativ portret mazkur obyektни aniq



tasavvur qilishga, u haqida ma'lumot olishga yordam beradi. Bunday assotsiativ portret til jamoasining obyekt haqidagi qarashlarini umumlashtiradi, unga bergan bahosini aks ettiradi. Shu jihatdan assotsiativ portret tushunchasi kishilar jamoasi yoki yakka shaxs lisoniy ongida muayyan obyektning hissiy obraz-qiyofasini gavdalandiruvchi shu obyektga nisbatan hosil bo'lgan assotsiatsiyalari majmuyi hisoblanadi. Assotsiativ birliklar insonning obyektни idrok etishi va ongida uning hissiy obrazi yuzaga kelishi bilanoq shu obyektga nisbatan hosil bo'ladi. Inson mazkur obyektни idrok etar ekan, unda bu obyekt haqidagi bilim va tasavvurlari xotirasida tiklanadi. Ya'ni, ushbu obyekt inson xotirasida o'zi bilan aloqador barcha tasavvurlarni tiklaydi va assotsiatsiyalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Demak, assotsiatsiyalar obyektning ongдagi obraz-qiyofasini to'laqonli va, shu bilan birga, unga yondosh hodisalar bilan aloqadorlikda ochib berishga xizmat qiladi. Bunday vaqtda obyektning obraz-qiyofasi shunchaki hissiy tasavvur natijasi bo'lib qolmay, assotsiatsiyalarni yuzaga keltiruvchi turtki sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shunisi xarakterliki, assotsiativ portretда obyektning eng muhim qirralari, xususiyatlari aks etadi. A.P. Chudinov, N.A.Segal, A.N.Mishenkolar qayd etishicha, politsiya hodimi assotsiativ portretini shakllantirishda mazkur kasb va uning xodimlari haqidagi taassurotlarni o'z ichiga olgan ma'lum tafsilotlar to'plami muhim o'rin tutadi. Bunday xususiyatlar orasida kasbiy tayyorgarlik darajasi, mas'uliyat, o'z mehnat vazifalariga munosabati, xulq-atvor me'yorlari va tamoyillari, xodimlar, fuqarolar bilan o'zaro munosabatlar, optimizm, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ruhiy tushkunlikka chidamlilik, yetakchilik fazilatları, fe'l-atvor xususiyatlari, tashqi ko'rinish, odatlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Anglashiladiki, assotsiativ portret obyekt haqidagi keng tafsilotlarni qamrab oladi. Agar kishilar obyekt haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasalar, u haqidagi assotsiatsiyalari chegaralangan shaklda bo'lib, bu holat obyekt assotsiativ portretining mukammal bo'lmasligiga olib keladi.





Insonda assotsiatsiyalar har qanday obyektga nisbatan hosil bo'lishi mumkin. Bunday assotsiatsiyalar asosida obyektning inson tasavvuridagi obrazi – portretini shakllantirish mumkin. Keyingi yillarda tilshunoslikda assotsiativ portret yaratish maqsadida migrant, talaba, taniqli shaxslar, politsiya xodimi, ayrim etnoslar tasvir obyektini sifatida tanlab olindi.

Assotsiativ portret obyektini sifatida nafaqat ayrim shaxslar, millat, balki muhim artefaktlar, davlatlar, shahar, hayvonot olami va boshqalar tanlanishi mumkin. Assotsiativ portret mana shu obyektlar bo'yicha inson ongida hosil bo'lgan, uning hissiy obraz-qiyofasi haqida ma'lumot beruvchi assotsiatsiyalar majmuyidir. Obyektning inson tasavvurlariga asoslangan bunday portretini shakllantirishda til egalari ustida o'tkaziladigan assotsiativ tajriba materiallariga tayaniladi.

Obyektning inson tasavvurlariga asoslangan obrazini lisoniy assotsiatsiyalar vositasida tasvirlashda ushbu obyektning tashqi qiyofasi, xarakter-xususiyatini ochib berishga xizmat qiladigan turtki so'zlardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, o'zbek onasining assotsiativ portretini tasvirlashda ona turtki so'zidan foydalanish mumkin. Yoki onaning tashqi qiyofasini ochib berishga xizmat qiladigan onalar chehrasi, onalar qo'llari, onalar gavdasi, onalar jussasi kabi somatik xarakterdagi birikmalardan yoki o'zbek onasining xarakterini tasvirlashda onalar xulqi, onalar odobi; onaning kasb-korini ochib berishda onalar kasbi, onalar mashg'uloti kabi onani tavsiflashga turtki beruvchi so'z birikmalaridan foydalanish mumkin. Bunday turki so'zlar bo'yicha sinaluvchilarda yuzaga keladigan javob reaksiyalari o'zbek onasini turli jihatdan tavsiflashga yordam beradi, uning qanday inson ekanligi, tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, mashg'uloti kabilar haqida ma'lumotlar taqdim etadi. Garchi javob reaksiyalari har bir sinaluvchining, asosan, o'z onasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirsa-da, takrorlangan javoblar asosida o'zbek onalarining umumiy tashqi qiyofasi,

xarakteri, fazilatlari, kasbi, jamiyatdagi mavqeyi haqida muayyan bilim va ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, assotsiativ portret obyektning shaxsiy va jamoaviy ongda aks etgan obrazini assotsiatsiyalarda tasvirllovchi, insonning ushbu obyekt haqidagi bilim va tasavvurlari, unga bo'lgan munosabatini namoyon qiluvchi, jamiyatda shakllangan sterotiplar, qadriyatlarni voqelantiruvchi, ong va tafakkurning milliy xususiyatlarini ochib beruvchi, shuningdek, lingvistik, psixologik, milliy-madaniy ma'lumotlarni o'zida jamlagan tusunchadir.\

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.;
2. Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 49 б.;
3. Таджибаев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 55 б.;
4. Ортиқова Ҳ. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи (Э.Воҳидов ва А.Орипов шеърлари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. –136 б.;